

Zohirjon Sobirovich Kenjayev

Termiz davlat universiteti o'zbek
tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi

zohirjonkenjayev@gmail.com

+998997197177

**JAHON TILSHUNOSLIGIDA ORONIMLARNING LINGVISTIK
TADQIQIGA OID ISHLAR BO'YICHA AYRIM MULOHAZALAR**

Annotatsiya. Ushbu maqolada ahon tilshunosligining yetakchi yo'nalishlaridan biri onomastikaning muhim tarmoqlaridan biri hisoblangan oronimikaning jahon tilshunoslari tomonidan ilmiy tadqiqiha bag'ishlangan ishlar tahlilga tortilgan. Ilmiy tadqiqot ishlarining diqqatga sazovor jihatlari, o'zbek oronimikasida ham olib borilishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: onomastika, oronim, oronimika, toponimika, relef, orografik terminologiya, orografik obyekt.

Кенджаев Захирджон Собирович

Преподаватель кафедры узбекского языкознания Термезского
государственного университета.

**НЕКОТОРЫЕ КОММЕНТАРИИ К ЛИНГВИСТИЧЕСКИМ
ИССЛЕДОВАНИЯМ ОРНИМА В МИРОВОЙ ЛИНГВИСТИКЕ**

Аннотация. В данной статье анализируются работы, посвящённые научным исследованиям мировых лингвистов орономике, которая является одним из ведущих направлений лингвистики Ахона и одной из важных отраслей ономастики. Высказаны примечательные аспекты научно-исследовательской работы и мнения о работе, которую следует провести в узбекской орономике.

Ключевые слова: ономастика, ороним, оронимия, топонимия, рельеф, орографическая терминология, орографический объект.

Kendjayev Zakhirdjon Sobirovich

SOME COMMENTS ON THE LINGUISTIC RESEARCH OF ORONIM IN WORLD LINGUISTICS

Abstract. In this article, the works devoted to scientific research by the world linguists of oronomics, which is one of the leading directions of Ahon linguistics and one of the important branches of onomastics, are analyzed. Remarkable aspects of scientific research work and opinions on the work that should be carried out in Uzbek oronomics have been expressed.

Key words: onomastics, oronym, oronymy, toponymy, relief, orographic terminology, orographic object.

Kirish. Har bir xalqda o'ziga xos an'analar bo'lib, ushbu an'analar ularning hayotidan muhim o'rin olagan. Bu an'analar asrlar davomida ajdoddan avlodga o'tib, tilshunoslik sohasiga ha o'z ta'sirini o'tkazgan. Jumladan, bunday holatlar xalqlarning onomasrikasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Onomastika bo'limining tarmoqlarning kengayishi yoki rivojlanishi o'sha xalqning bevosita geografik joylashuvi, tarixi, ijtimoiy hayoti va h.k.lar bilan bog'liq bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tishimiz joizki, onomastikaning toponimika va oronimiya sohalari barcha xalqlar tilshunosligi uchun muhim hisoblanadi. Jahon tilshunosligida oronimlar toponimikaning bir qismi sifatida e'tirof etiladi va o'rganiladi. 1960-1970-yillarda oronimika toponimikaning alohida sohasi sifatida ajralib, mustaqil yo'nalish sifatida shakllana boshlagan. Bu soha jahon tilshunoslarini e'tiborini tortib, oronimlarning atashlilik ma'nosi, milliy-madaniy jihatdan ushbu oronimlarning aynan atalishiga sabab bo'lgan tomonlar olimlarning e'tiborini torta boshladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tojikiston oronimiyasi B.A.Alborov va A.Z.Rozenfeldler [2; 133-139] lar tomonidan o'rganilgan bo'lsa, yirik tadqiqot ishlari Rossiyada oronimlarning monografik tadqiqining ilk izlanishlar O.T.Molchanova [8; 22] ning ishlarida ko'zga tashlandi. 1969-yilda esa oronimikaga doir ilk ilmiy maqolalar to'plami nashr etilgan bo'lib, to'plamga

Yoqutiston, Tojikiston, Eron va Qrim oronimiyasi va turkiy, fin-ugor, slavyan tillari orografik terminologiyasiga doir maqolalar kiritilgan [10; 71]. Turkologiyada esa ko'proq gidronim va oronimlarning monografik tadqiqi qo'shilgan holda tadqiq etildi. 1980-yillarda Y.A.Kerambayev ning Qozog'iston oronimlarining leksik-semantik tipologiyasi [6; 195], R.D.Sunchugashev 12; 23] Xakasiya oronimiyasiga doir dissertasiyalari yozilgan.

N.A.Lasnova [7; 174] Janubi-Sharqiy Boshqirdiston oronimiyasi bo'yicha ilk lingvistik tadqiqot yaratdi, biroq u oronimlarga har qanday yer osti obyektlari nomlarini – speleonim (yun. cpleo – g'or + onoma – atoqli ot) – yer ostida joylashgan, yer ustiga chiqish yo'liga ega bo'lgan har qanday obyektlar (g'orlar, yer osti daryolari, buloqlar, sharsharalar, ko'llar, quduqlar va shu kabilar)larni ham oronimlar guruhiga kiritgan. Nazarimizda, uning ushbu fikrlariga qo'shib bo'lmaydi. Chunki speleonimlar gidronimik ko'lam sirasiga o'rganiladi.

P.Enxjargal [19;124] rang-tus komponentli mo'g'ul va yapon tillari oronim va gidronimlarini tipologik jihatdan monografik tadqiq etgan. Oltoydagi rus oronimlari nominatsion aspektida T.V.Chernshova [17; 17] tomonidan o'rganilgan.

Toponimika sohasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar, manbalarda oronimlar va oronimika tushunchasi, shuningdek, uning o'rganish obyektini belgilash masalasida turlicha fikrlarni uchratish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Jahon tilshunosligida ham bu masalaga jiddiy e'tibor qaratishganini guvohi bo'lamiz. Jumladan, rus olimi Y.M.Pospelov bu borada quyidagilarni qayd etadi: “Oronimiya deganda hajmi va gipsometrik sathidan qat'iy nazar relefning musbat va manfiy shakli nomlarini tushunish qabul qilingan. Oronimiyaga teng asosda tog'lar, cho'qqilar va baland tog'li vodiylar ham, tekisliklar, dashtlar, tekisliklardagi katta bo'lmagan tepaliklar va jarliklar nomlari ham kiradi. Oronimiyaga toponimiyaga tegishli bo'lgan barcha asosiy qonuniyatlar va holatlar daxldor va ayni vaqtda, faqat uning o'ziga xos bo'lgan, lekin hali to'liq aniqlanmagan xususiyatlar ham mavjud” [13;4].

Rus onomastik terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan N.V.Podolskayaning lug'atida oronim va oronimika

tushunchalariga quyidagicha izoh berilgan: “Oronim – toponimning bir turi. Yer yuzasi relefning har qanday (musbat va manfiy) elementi, ya’ni orografik obyektlarning atqoli oti. Oronim termini tarkibiga ko’ra grekcha oros – tog‘, onyma – nom kabi ma’noli qismlardan iborat. Oronimlar yig’indisi oronimiya deyiladi. Toponimikaning ma’lum bir til yoki region oronimlari majmuini, ularning paydo bo’lishi, rivojlanishi va shakllanishini o’rganadigan bo’limi oronimika deyiladi” [14; 105].

A.V.Superanskaya geografik obyektlarning o’zaro farqlanuvchi xususiyatlari haqida to’xtalib, shunday fikrlarni ilgari surgan: — Ma’lumki, butun yer yuzi quruqlik (territoriya) va suvlik (akvatoriya)ga bo’linadi. O’z navbatida, ular landshaft va releflarga bo’linadi. Ular yer ustida va suv ostida ham bo’lishi mumkin. Landshaft va releflarning turli birikuvlari o’ziga xos fizik-geografik obyektlarni tashkil qiluvchi alohida sohalarni xarakterlaydi. Bu yerda bir tomondan musbat xarakterdagi relef, ya’ni tog’lar, cho’qqilar, qirlar, tepalar, turli shakl va hajmdagi balandliklar, ikkinchi tomondan, manfiy xarakterdagi relef, ya’ni tekisliklar, bo’shliqlar, chuqurliklar, jarliklar, vodiylar, daralar ajralishi mumkin. Bunday obyektlar nafaqat quruqlikda, balki suv osti dunyosida ham mavjud bo’ladi. Territoriya, ya’ni quruqlikda mavjud bo’lgan barcha tabiiy-fizik obyektlarning nomlari oronimlarga tegishli bo’ladi [15; 22].

O’zbek tilshunosligida S.Bo’riyev va S.Karimovlar oronimlarni “tog’ nomlar” deb izohlab, bu guruhga tepalar, cho’qqilar, qirlar, daralar va jarlarning nomlarini ham kiritish mumkinligini ham aytib o’tishgan [5; 44]. T.Ernazarov bu sohaga oid terminlarni quyidagicha izohlaydi: “Oronim – baland, pastliklar, tog’, tepalar nomi. Oronimiya – baland, pastliklar, tog’ va tepalarning nomlari yig’indisi. Oronimika – baland, pastliklar, tog’, tepalar nomlarini o’rganuvchi bo’lim” [18; 78]. S.Qorayev: “Oronim (oros – tog’, onoma – nom, ism) – tog’lar, tepaliklar, qirlar, soyliklar, daralar va boshqa orografik obyektlarning nomlari”, – deb yozadi [20; 193]. Boshqa o’rinda toponimist: «Oronimlarga tog’- u toshlargina emas, balki relefning salbiy shakllari – vodiylar, daralar, jarliklar, soyliklar, o’yiqlik, o’ypoqlar, shuningdek, tekislik, past tekisliklar va qumliklar ham kiradi», – deb

ko'rsatadi 221; 66]. Z.Do'simov, M.Tillayevalar oronim terminiga «relef tiplari va shakllari (yer yuzasidan balandlik va chuqurlik) nomi» degan izoh berishgan [4; 82].

Oronim termini E.Begmatov, N.Uluqovlarning terminologik lug'atida mukammalroq izohlangan: "Oronim (yun.oros – tog' + onoma – atoqli ot) – yer yuzasi relefidan bo'rtib, ko'tarilib chiqqan har qanday baland joylar (tog', qir, tepa, cho'qqi, dovon va boshqalar) atoqli oti" [3; 63].

Y.Avlaqulov oronimlarni makroko'lam sifatida talqin etadi va unga quyidagi obyekt nomlarini kiritadi: 1) tog'lar, tog' tizmalari nomi: 2) dovonlar, oshuv, bel, ko'tallar nomi: 3) cho'qqilar, qoyalar nomi: 4) tepalar, do'ngliklar, qirlar nomi [1;27].

Sh.Temirov Samarqand viloyati materiallari asosida o'zbek tili oronimlarini tadqiq etib, oronimlar ko'lamini quyidagicha belgilaydi: tog' tizmalari nomlari, adir (tog'larga yaqin, tog' etaklaridagi alohida tepalik yerlar) nomlari, dovon//bel (tog' va tepaliklarning egarsimon eng baland joyi) nomlari, tog' nomlari, qoya nomlari, tosh nomlari, kamar nomlari, cho'qqi (tog'ning eng baland, yuksak joyi) nomlari, tepa nomlari, dara nomlari, zov nomlari, gaza nomlari, supa nomlari, uchma (tik qoya) nomlari, qir nomlari, g'or//ungur nomlari. tumshuq nomlari [16; 24].

Yuqorida ilmiy talqinlarni umumlashtirgan holda oronim terminini quyidagicha izohlash mumkin: oronimlar tog'lar, tog' tizmalari, qirlar, dovonlar, tepalar, tepaliklar, qoyalar, cho'qqilar, toshlar, adirliklar va tog'liklarda joylashgan boshqa xil geografik o'rinlarni ifodalovchi obyektlarning atoqli otlari hisoblanadi.

O'zbekiston yer yuzasi qir-adir va tog' qismlaridan iborat. Serqirra va zahmatkash olim S.Qorayevning ta'kidlashicha, O'zbekiston hududining 1/5 qismi tog'lardan iborat. 1: 200000 masshtabli topografik xaritalarda mamlakatlarimizdagi 700 dan ortiq oronimlar — tog'li o'lkalar, ayrim tog'lar, cho'qqilar, qoyalar, dovonlarning nomlari qayd qilingan.

Surxondaryo viloyati oronimlarga boyligi jihatidan (150 ga yaqin oronim) birinchi o'rinda turadi (mashhur Hisor tizmasi va uning tarmoqlari Boysun tog',

Qo‘hitang tog‘, Bobotog‘). Qashqadaryo viloyatida 145 oronim, Navoiy viloyatida 105, Toshkent viloyatida 103, Samarqand viloyatida 59, Jizzax viloyatida 52 ta oronim qayd qilingan. Boshqa viloyatlar aksari tekislikda joylashganidan oronimlarga boy emas. Xorazm viloyatida 1 oronim uchraydi; Sirdaryo viloyatida esa umuman tog‘, binobarin oronim yo‘q [21; 66].

Oronimlar toponimlarning boshqa turlariga qaraganda eng kam o‘rganilgan sohasi hisoblanadi. Oronimika tilshunoslikning nazariy va amaliy xarakterga ega bo‘lgan sohalaridan biri bo‘lib, u ham toponimikaning boshqa bo‘limlari qatori o‘zining o‘rganish obyekti va predmetiga ega.

Oronimika oronimlar bilan bog‘lik quyidagi masalalarni o‘rganadi:

- relefning musbat va manfiy shakli nomlari - oronimlarning yuzaga kelishi va shakllanishining lisoniy va nolisoniy omillarini;
- orografik obyektlarning nomlanishiga xos tarixiy an‘analarni;
- OI(oronimik indikator)larning lisoniy xususiyatlarini va oronimlar tarkibidagi vazifalarini;
- orografik obyektlarning nomlanish tamoyillarini;
- oronimlarning tarixiy va zamonaviy shakllarini hamda tilning oronimik sathidagi lisoniy o‘zgarishlarni;
- oronimlarning lug‘aviy-ma‘noviy xususiyatlarini;
- oronimlarning tarkibiy tuzilishi va yasalish xususiyatlarini;
- tilning apellyativ leksik sathi bilan oronimik leksik sathi munosabatlarini;
- oronimlarni toponimlarning boshqa turlari - oykonimlar, gidronimlar, antraponimlar, zoonimlar, speleonimlar bilan munosabatlari, o‘zaro ta’siri, ularning bir obyekt turidan boshqasiga o‘tishi, ya’ni transonimizasiya hodisalarini;
- tarix, geografiya va folklorga tegishli asarlar va qadimgi qo‘lyozmalardagi oronimlarga tegishli ma’lumotlarni;
- oronimlarning mahalliy lahja va shevalarga tegishli xususiyatlarini;
 - oronimlarning tarixiy-etimologik xususiyatlarini;
 - oronimlarni tasniflash bilan bog‘liq masalalarni;
 - oronimik xaritalar va lug‘atlar tuzish tamoyillarini.

Yuqoridagilardan anglashiladiki, oronimika onomastikaning ilmiy yo‘nalishi sifatida tilshunoslikning bir qancha bo‘limlari, jumladan, dialektologiya, etimologiya, terminologiya, morfemika, til tarixi kabi bo‘limlari bilan uzviy aloqador.

Oronimika, ayniqsa, Yerning relefini, undagi turli geografik obyektlarning joylashish o‘rni, tuzilishi va taraqqiyoti, ularning alohida bo‘laklarini, hududlar bo‘yicha taqsimlanishi va o‘zaro munosabatini o‘rganadigan geografiya fani uchun katta ahamiyatga ega. Oronimlar orografik obyektlarning aniq manzilini ifodalaydigan, ularni o‘zaro bir-biridan farqlab ko‘rsatadigan asosiy belgi - atoqli otdir. Ayniqsa, tog‘ tizimlari, tizmalari, alohida tog‘lar ma‘lum bir ma‘muriy hududlarni o‘zaro farqlaydigan, bir-biridan ajratib ko‘rsatadigan o‘ziga xos tabiiy chegara vazifasini bajaradi. Bu tabiiy chegaralarning aniq manzilini ko‘rsatish va farqlashda oronimlarning o‘rni hamda ahamiyati beqiyosdir. Shuning uchun ham ular shu xususiyatlari bilan turli maqsad va vazifalarga xoslangan geografik xaritalar tuzishda katta ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan ham oronimiya tabiiy geografiyaning bir bo‘limi sifatida yer tuzilishi, relefning yirik shakllari (tog‘lar, qirlar, balandliklar va botiqoqliklar)ni o‘rganadigan, ularga morografik tavsif beradigan, ularning joylashgan o‘rni, hajm-o‘lchovi (balandligi, uzunligi va b.) to‘g‘risida ma‘lumot beradigan orografiya fani bilan, geografik xaritalar tuzish bilan shug‘ullanadigan xaritashunoslik (kartografiya) sohalari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularga lisoniy manba va asos vazifasini bajaradi. Shuningdek, oronimika sohasida amalga oshirilgan tarixiy-lisoniy tadqiqotlar va olingan natijalar, chiqarilgan nazariy va amaliy xulosalar amaliy geografiya sohasi va geografiyani o‘qitish masalalari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar. Xalqimizning ko‘p ming yillik hayoti davomida tilimizda bir qancha orografik tushunchalarni ifodalovchi o‘ziga xos so‘zlar, ya‘ni orografik terminologiya shakllangan. Orografik obyektlarni ifodalovchi terminlar va oronimlarning tarkibida indikator vazifasida qo‘llanuvchi quyidagi so‘zlarni ko‘rsatish mumkin: tog‘, tosh, qoya, qiya, cho‘qqi, qir, tepa, dovon, bel, sirt, adir, ko‘tal, ort, do‘ng, cho‘l, gaza, dara, tangi, zov, jar, kux, kamar, sang, dasht, mula,

nura, ur, ura, maydon, aydar, mas//mos, taxta, alang, kul, shoti, ayri, suyri, aqba//agba, yaylov, yaylok, chovra, bitov//pitov, xuchchi, tubak, kalok, dum, buktar, zayak, xayat, kashka, kobok, singir, sala, jun//juna, tukay, chagil//chagal, chagat, supa, yona, shiram, chukur, xandak, guruh, qum, chambar, kakir, takir, dagar, jol, tula, bayir, shur, bet, xavol, g'or, poya, kuruk, tuz, chalka, tumshuk, kapug, darvoza, darband, kiz//kuz, ti//tig//teg, baroz//barzu, shirdon, buz, jira, kayir, buyin, buynok, boldir, changal//jangal, pushta, kasova//kasaga, kasnak, orka, orqavul, burun, oshuv, kayki, uy, tokcha, kapchigay, yovon, xovar, jovuz, zarang, saxro, chortok, sangir, bodiya, matora, vart//vark, dapsan, tarma, tirsak, chosh//shosh, chek, ungur, chordara, chitanak va b.

Xulosa. O'zbekiston o'zining tabiiy-geografik joylashish o'rni va orografik obyektlarga boyligi bilan o'ziga xos xarakter-xususiyat kasb etadi. O'lkaning Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari hududlarini o'z ichiga oluvchi Janubiy O'zbekiston mintaqasi butun O'zbekistonga xos bo'lgan barcha tabiiy-geografik xususiyatlarni o'zida aks ettirishi bilan alohida ajralib turadi. Chunki, Janubiy O'zbekiston mintaqasi ulkan tog' tizmalari, baland tog'lar, osmono'par cho'qqilar, baland tog'lar orasidan o'tgan chuqur daralar, turli hajm va balandlikdagi adirlar, qirlar, tepaliklar, keng yaylovlar, dashtliklar, cho'llar va boshqa turdagi orografik obyektlarga boydir. Shu nuqtayi nazardan Janubiy O'zbekiston mintaqasining oronimlarining leksik-semantik, shuningdek, lingvomadaniy jihatlarini ilmiy tadqiq qilish tilshunosligimiz oldida turgan muhim vaziflardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avlaqulov Y.I. O'zbek tili onomastik birliklarining lisoniy tadqiqi: Filol. fan. nomz... disser avtoref. – Toshkent, 2012. – B. 27.
2. Алборов Б.А. Одно из древних мест поселения предков осетины Средней Азии по данным топонимики, гидронимики и оронимики // 5-ая межвузовская конференция по иранской филологии (тезисы докладов). – Душанбе, 1966. – С.133-139.
3. Begmatov E., Uluqov N. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. – Namangan, 2006. – B. 63.
4. Do'simov Z., Tillayeva M. Toponimika asoslari. – Toshkent, 2002. – B.82.

5. Karimov S.A., Bo'riyev S.N. O'zbek toponimikasi taraqqiyot bosqichida. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 44.
6. Керамбаев Е.А. Лексико-семантическая типология оронимов Казахстана: Дис. ... канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1988. – 195 с.
7. Ласынова Н. А.Оронимия Юго-Восточного Башкортостана (Лингвистический анализ): Дис. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2004. – 174 с.
8. Молчанова О.Т. Гидронимы и оронимы Горно-Алтайской автономной области (лингвистический анализ): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Томск, 1968. – 22 с.
9. Молчанова О.Т. Географические термины горной части Алтая // Языки и топонимия Сибири. – Томск, 1970. – С. 15.
10. Оронимика. Сб. Статей / Ред. Коллегия В.Д. Беленькая и др. – Москва: ЦЫИИГАИК, 1969. – 71 с.
11. Розенфельд А.З. Оронимы Юго-восточного Таджикистана // Душанбе, 1966. – С. 133-139.
12. Сунчугашев Р.Д. Оронимия Хакасии: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 1999. – 23 с.
13. Пospelов Е. М. Оронимика СССР: состояние и проблемы// Оронимика (Сборник статей). – Москва, 1969. – С. 4
14. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – Москва: Наука, 1978. – С. 105.
15. Суперанская А.В. Что такое топонимика? – Москва: Наука, 1984. – С. 22.
16. Temirov Sh. Samarqand viloyati oronimlaking lisoniy tadqiqi: Filol. fan. nom. ... diss. avtoref. – Samarqand, 2019. – 24 b.
17. Чернышова Т. В. Русская оронимия Алтая в аспекте номинатсии. Автореф.канд.филол.наук. – Томск, 1988. – 17 с.
18. Enazarov T. Nomshunoslik masalalari. – Toshkent, 2010. – B. 78.
19. Энхжаргал П. Типологическое исследование оронимов и гидронимов с компонентом цветообозначений в японском и монгольском языках: Дис. ... канд. филол. наук / Монгольский государственный университет. – Улан-Батор, 2005. – 124 с.
20. Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosi. – Toshkent: O'zbekiston, 1978. – B. 193.
21. Kenjayev Z. BOYSUN TUMAN QO 'SHMA TARKIBLI ORONIMLARI // Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 169-173.
22. OID O. Z. X. E. N., QO'LLANISHI E. Cultural sciences //BBC. – 2023. – Т. 4. – С. 25.

23. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. – B. 66.